

Otaxonova Intizor Norimboy qizi
Urganch davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti
intizornorimboyevna@gmail.com

URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Urganch davlat pedagogika institutining tashkil etilishining tarixiy-huquqiy asoslari, rivojlanish bosqichlari hamda Xorazm viloyati ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilingan. Institutning tashkil etilishiga olib kelgan omillar, uning o'quv, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Shuningdek, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda institutning ahamiyati hamda hudud oliy ta'lim tizimi rivojiga qo'shayotgan hissa tarixiy manbalar va rasmiy hujjatlar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalarida institut faoliyatining asosiy yutuqlari va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari yuzasidan ilmiy xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Urganch davlat pedagogika instituti, oliy ta'lim, pedagogik ta'lim, pedagog kadrlar, Xorazm viloyati, ta'lim islohotlari, oliy ta'lim muassasalari, rivojlanish bosqichlari.

ЭТАПЫ ОРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ХОРЕЗМСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Аннотация. В данной статье проанализированы историко-правовые основы создания Ургенчского государственного педагогического института, этапы его развития и роль в системе образования Хорезмской области. Освещены факторы, обусловившие создание института, а также основные направления развития его учебной, научной и духовно-просветительской деятельности. На основе исторических источников и официальных документов раскрыто значение института в совершенствовании системы подготовки педагогических кадров и развитии регионального высшего образования. В результате исследования сформулированы научные выводы о достижениях института и перспективах его дальнейшего развития.

Ключевые слова: Ургенчский государственный педагогический институт, высшее образование, педагогическое образование, педагогические кадры, Хорезмская область, реформы образования, высшие учебные заведения, этапы развития.

STAGES OF FOUNDATION AND DEVELOPMENT OF THE URGENCH STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

Annotation. This article analyzes the historical and legal foundations of the establishment of Urgench state pedagogical institute, its stages of development, and its role in the educational system of the Khorezm region. The study highlights the factors that led to the establishment of the institute and examines the main directions of its educational, scientific, and socio-cultural activities. Based on historical sources and official documents, the article reveals the significance of the institute in improving teacher training and contributing to the development of higher education in the region. The research findings provide scientific conclusions regarding the institute's achievements and future development prospects.

Keywords: Urgench state pedagogical institute, higher education, pedagogical education, teacher training, Khorezm region, educational reforms, higher education institutions, stages of development.

Kirish.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda hududlarning malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini qondirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Ayniqsa, so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagogik ta'limni takomillashtirish va oliy ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Urganch davlat pedagogika instituti tashkil etildi[1].

Mazkur qaror pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish hamda hududlarning pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy asos bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmoni bilan tasdiqlangan oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan[2].

Urganch davlat pedagogika instituti tashkil etilishi Xorazm viloyatida pedagogik ta'lim tizimini rivojlantirish, malakali pedagog kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim xizmatlari qamrovini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bois institutning tashkil etilishi, rivojlanish bosqichlari hamda hudud ta'lim tizimidagi o'rnini tarixiy jihatdan o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi Urganch davlat pedagogika institutining tashkil etilishining tarixiy-huquqiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va Xorazm viloyati oliy ta'lim tizimidagi o'rnini tahlil qilishdan iborat.

Metodlar va o'rganilish darajasi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda pedagogik ta'limni takomillashtirish masalalari mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Xususan, Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida oliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim qamrovini kengaytirish hamda raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [3]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmoni bilan tasdiqlangan oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida pedagogik ta'limni rivojlantirish va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli qarori esa pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishning huquqiy asoslarini yaratdi [1]. Biroq Urganch davlat pedagogika institutining tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari bugungi kunga qadar alohida tarixiy tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Mazkur tadqiqotda tarixiylik, xolislik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning manbashunoslik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Urganch davlat pedagogika institutining rasmiy hujjatlari, statistik ma'lumotlari, hisobot materiallari hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi [5]. Tadqiqot davomida institutning tashkil etilishi, tashkiliy tuzilmasi, ta'lim faoliyati va rivojlanish bosqichlariga oid ma'lumotlar tahlil qilinib, ular asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Natijalar va muhokama.

Institut davlat oliy ta'lim muassasi hisoblanib, oliy ta'limning asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini bajarish bo'yicha ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'quv ilmiy metodik va boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi va ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi. Institut o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Oliy Majlis qonunchilik palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston

- 34 Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyruqlari asosida mazkur ustavga amal qiladi [6].

Institutda bugungi kunda 5 ta fakultet, filologiya, pedagogika, boshlang'ich ta'lim, aniq va tabiiy fanlar, ijtimoiy va amaliy fanlar fakultetlari faoliyat yuritib kelmoqda. 2025-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Urganch davlat pedagogika institutida jami 8 ming 235 nafar shundan, 5 ming 438 nafari kunduzgi, 261 nafari magistratura yo'nalishida, sirtqi ta'limda 2 ming 194 nafar, kechki ta'lim shakli bo'yicha 353 nafar, ikkinchi oliy kunduzgi ta'limda 48 nafar, ikkinchi oliy sirtqi ta'limda 202 nafar talaba-yoshlar tahsil oldi. [7].

Urganch davlat pedagogika institutda 2025-yil davomida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 17-apreldagi 122-son hamda 2025-yil 20-avgustdagi 312-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy reja-jadvallarga asosan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Mazkur ish rejalarida belgilangan vazifalar o'z vaqtida amalga oshirildi. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, dekan o'rinbosarlari va tyutorlarning ish rejaları ishlab chiqilib ijroga qaratildi. O'tkazilgan har bir tadbir institutning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari orqali keng yoritildi. Jumladan, har haftaning dushanba kunlari Yoshlar bilan ishlash tizimidagi mas'ullar ishtirokida tahliliy yig'ilishlar o'tkazilib, yig'ilish kun tartibida hafta davomida amalga oshirilgan ishlar muhokama qilinishi an'anaga aylangan [8].

Talabalarning kutubxonadan samarali foydalanishini ta'minlash maqsadida axborot resurs-markazi yangi adabiyotlar bilan to'ldirib borildi. Axborot-resurs markazi umumiy fondida 2 849 nomda 10 159 nusxada adabiyotlar mavjud bo'lib, ko'zi ojiz talabalar uchun brayl yozuvidagi 27 nomda 52 nusxadagi o'quv adabiyotlar hamda 100 dona elektron audio adabiyotlar diskleri va 30 ta eshitish moslamalari bilan jihozlangan kompyuter texnologiyalari mavjud. Axborot-resurs markazida "Kitobxonlar" klubi tashkil etilgan bo'lib, 100 dan ortiq talabalar klubning faol a'zolari hisoblanadi [9].

O'tgan davr mobaynida institutning 103 nafar professor-o'qituvchilari, tyutorlar, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda "mahalla yettilig"ning mas'ul hodimlari bilan birgalikda "Dolzarb 90 kun" loyihalari doirasida turli hil ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy loyiha va tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, Urganch shahrining 40 ta mahallalarida 40 nafar professor-o'qituvchi va tyutorlar tomonidan 415 ta tadbirlarda 12 ming 650 nafar hamda Urganch tumanidagi 60 ta mahallalarda 63 nafar mas'ullar ishtirokida 678 ta loyiha, tanlov va sport musobaqalari tashkil etilib, 15 ming 934 nafar o'quvchi va talaba-yoshlar qamrab olindi [10].

Xulosa.

Tadqiqot natijalari Urganch davlat pedagogika institutining tashkil etilishi Xorazm viloyatida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatdi. Institutning tashkil etilishi oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, hududning pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda pedagogik ta'lim sifatini oshirishga xizmat qildi. O'rganilgan ma'lumotlar institutda zamonaviy ta'lim muhitini shakllantirish, professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish va ilmiy faoliyatni rivojlantirish borasida muayyan natijalarga erishilganligini ko'rsatdi. Shuningdek, institutning hududiy va xalqaro hamkorlik aloqalarining kengayib borishi uning ta'lim va ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida institut faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va pedagogik ta'lim sifatini oshirish uning rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
5. Urganch davlat pedagogika instituti faoliyatiga oid rasmiy ma'lumotlar va statistik hisobotlar. – Urganch, 2022–2025.
6. Urganch davlat pedagogika instituti joriy arxivi. 2022-yil faoliyati yuzasidan hisobot. – 15-b.
7. Urganch davlat pedagogika instituti ustavi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 13-oktabrdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan. – Urganch, 2023. – 2-b.
8. Urganch davlat pedagogika instituti 2024-yil yakunlari bo'yicha hisoboti. – Urganch, 2024. – 15-b.
9. Urganch davlat pedagogika instituti axborot-resurs markazi ma'lumotlari. – Urganch, 2024. – 7-b.
10. Urganch davlat pedagogika instituti. 2025-yil davomida amalga oshirgan ishlari yuzasidan ma'lumot. – Urganch, 2025. – 3-b.